



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand MGQE boshlig‘i

S.Yu. Nematullayev

2024 yil

Samarqand Markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi Shimoliy Nurota DE ishchi xodimlari safida o‘tkazilgan davra suhbat

B A Y O N N O M A S I № 31

15.11.2024 yil

Nurota tumani
Alpxori qishlog‘i

Qatnashdilar: U.N.Abdugodirov - Shimoliy Nurota DE boslig‘i
- A.Normuminov- Shimoliy Nurota DE bosh geologi
- Shimoliy Nurota DE ishchi xizmatchilari, jami 47 nafar xodim.
- Navoiy viloyati Nurota tumani ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi katta inspeknori mayor Ergashev Jasurbek Sadullaevich

Mavzu: “9-dekabr Butun jahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”

(“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tomonidan taqdim etilgan elektron targ‘ibot materiallaridan foydalanildi).




Shimoliy Nurota DE boslig‘i U.N. Abdugodirov davra suhbatini ochib, kun tartibini e‘lon qildi va kun tartibidagi masalaga doir axborot taqdim qilib, Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki me‘yoriy hujjatlarning mazmun mohiyati borasida va Axloq Kodeksi, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosati va ushbu sohaga oid boshqa ichki me‘yoriy hujjatlar borasida batafsil ma‘lumotlar taqdim yetdi. Ushbu hujjatlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish

muhitini yaratishdagi va korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish borasidagi vazifalari to'g'risida ma'lumot berdi.



Kun tartibidagi masala yuzasidan Nurota tumani IIO FMB bo'limi katta inspektori mayor J.S.Ergashev o'z so'zida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va bu borada milliy qonunchilikning yaratilishi, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, xususan, qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarliligi masalalariga to'xtaldi va korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari, jamoat tashkilotlari, aholi va fuqarolarning roli va ularning mas'uliyatini oshirish lozimligini ta'kidladi.



Korrupsiyaviy xavf, korrupsiyaviy o'zgaruvchanlik tushunchalariga izoh berdi. Ushbu yo'nalishda ma'muriy va jinoiy Kodekslarga kiritilayotgan o'zgarishlar, ushbu huquqbuzarliklarni sodir etayotgan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan ma'muriy va jinoiy jazo turlari, ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfi borasida tushuntirdi. Jinoyatga jazo muqarrarlighi tamoyili va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksinig 167, 168, 192, 205, 209, 214, 243 va 301-moddalarida nazarda tutilgan jazo turlari haqida batafsil ma'lumot berdi. Ekspeditsiya xodimlariga targ'ibot materiallarini tarqatdi. Xodimlar bilan muhokama qilinayotgan mavzuga oid savol-javob o'tkazdi.



Davra suhbatida Shimoliy Nurota DE bosh geologi A.Normuminov, M. Shirinovlar ham o'z fikr-mulohazalarini bildirishib, bu illatga qarshi kurashishda barcha ishchi xizmatchilar mas'ul ekanligini takitlashdi.

Toshiriqlarning ijrosini nazorat

qilish bo'yicha inspektor

“ 15 ” 11 2024 yil.

Handwritten signature in blue ink.

A.B.Olmasov